

XUSHABAR

YANGI O'QUV YILI - YANGI BINODA

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 23 yilligini Farg'ona viloyati, Qo'shtepa tumani, Bo'ston qishlog'i aholisi ko'tarinki kayfiyatda qarshi oldi. Boisi, bunyodkorlar tomonidan qishloqdagi 42-umumta'lim maktabi binosi qisqa muddatda qurilib, bayram arafasida foydalanishga topshirildi. Hozirda yangi maktabda 163 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:37 (66994)

2014-yil

15-sentabr



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

23 yil **YAGONASAN, MUQADDAS VATANIM, SEVGI VA SADOQATIM SENG BAXSHIDA, GO'ZAL O'ZBEKISTONIM!**



«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA»
respublika ko'rik-tanlovi g'oliblari aniqlandi



G'OLIBLAR BILAN 3-bet DA TANISHASIZ

Ushbu sonda:

EZGULIKNING UZUN YO'LI

2-bet

O'SMIRLARIMIZ CHORAK FINALDA

7-bet

USTOZ TUHFASI

8-bet

SE. MAXMADIYEV olgan suratlar

EZGULIKNING UZUN YO'LI

Kasbimiz taqozosi bilan ko'plab davralarda bo'lamiz, o'quvchi-yoshlar bilan uchrashamiz, suhbatlar o'tkazamiz. Eng ulug', eng aziz bayramimiz shukhi hamon yurtimiz bo'ylab kezib yurgan ayni farahbaxsh kunlarda kim bilan suhbatlashmaylik, qalbida faxr va iftixor tuyg'usi, kayfiyatida ko'tarinkilik. Nuroniylarimiz ota-bobolarning asriy, azaliy orzusi bo'lgan mustaqillik kunlariga yetkazganiga shukronalar aytishsa, yoshlarimiz ularning sog'lom va barkamol ulg'ayishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlardan masrur.

Darhaqiqat, Istiqolning dastlabki kunlaridanoq yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan etib belgilandi. Dastlab sohaning mustahkam qonunchilik asoslari yaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturiga singdirilgan hayotbaxsh g'oyalar bugungi kunda o'quvchi-yoshlarimizning bilim va salohiyatida, xalqaro fan olimpiadalarida erishayotgan olamshumul yutuqlarida yanada yaqqolroq namoyon bo'lmoqda.



Yaqinda Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida bo'lib, yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning amaldagi isbotiga guvoh bo'ldik. Tumandagi 61-umumta'lim maktabida o'tkazilgan tadbirida ishtirok etib, «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» shiori yangiyo'llik ustoz va muallimlarimizni ham ibratli tashabbuslar sari undayotganiga guvoh bo'ldik.

– Tumanimizda 67 ta umumta'lim maktabi, 1 ta maxsus maktab, 23 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 1 ta nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi, 2 ta bolalar musiqa va

san'at maktabi, 3 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi va 1 ta «Barkamol avlod» markazi faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularning barchasida o'quvchilarimiz uchun yaratilgan shart-sharoitlar havas qilsa arzigudek, – deydi Yangiyo'l tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri **Muhabbat Alimova**. – 2008 nafar jonkuyar, fidoyi o'qituvchi va murabbiylar qo'lida 34586 nafar o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya topmoqda. «Barkamol avlod» markazi qoshida muntazam faoliyat yuritayotgan besh ta o'garagimiz 272 nafar o'g'il-qizning darsdan bo'sh vaqtlarini maroqli, mazmunli o'tkazishlariga xizmat qilmoqda. Bolalar musiqa va san'at maktabida 498 nafar iste'dodli yoshlar san'at sirlarini puxta egallashyapti.

Bugun yoshlarning shijoati o'zgacha. Bilimi va iqtidor tufayli ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib, tumanining dovrug'ini respublikaga taratayotgan iqtidorli yoshlar Yangiyo'l'da ham talaygina.

Tumandagi 61-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Madina Rustam qizining «Bilimlar bellashuvi»ning Respublika bosqichida qatnashib, faxrli 1-o'rinni egallagan, 75-bolalar musiqa va san'at maktabining 3 nafar o'quvchisi Sochi shahrida bo'lib o'tgan xalqaro festivalda muvaffaqiyatli ishtirok etishgani, Qori Niyoziy nomli respublika tanlovida 11 nafar o'quvchining 1-o'ringa, 13 nafar iqtidor egasining 2- va 3-o'rinlarga munosib ko'rilgani fikrimizning dalili bo'la oladi.

Bunday yutuqlar, yuqori natijalar o'z-o'zidan qo'lga kiritilmaydi, albatta. Nihol ham yaxshi joyda ko'karadi, degan naql bor. Shu ma'noda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zamirida eng avvalo, yurtimizdagi tinchlik, osoyishtalik, qolaversa, o'g'il-qizlarimizga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor mujassam.

Har bir xalqni uning iste'dodli farzandlari dunyoga tanitadi. Ana shu iste'dodlarni tarbiyalashdek sharaflari vazifa biz pedagoglarning zimmamizda ekanligidan qalbmizda faxr tuyg'ulari jo'sh uradi. Shuningdek, bu mas'uliyatning zalvorini ham teran anglaymiz.

Ustozlariga havas qilib, ulkan marralarni ko'zlayotgan o'quvchilarimiz erishayotgan yutuqlarni birma-bir xayolimdan o'tkazar ekanman, yurtimizda Istiqolning chinakam farzandlari, xalqimiz orzu qilgan barkamol avlod voyaga yetayotganiga yana bir bor amin bo'laman...

Feruza JALILOVA

Mustaqilligimizning 23 yillik bayrami keng nishonlanayotgan ayni pallada o'tgan o'quv yili yakunlarini chuqur tahlil etish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlash, yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabablarini aniqlash, yangi o'quv yilida darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga erishish maqsadida joylarda izchil harakatlar olib borilmoqda. Bu borada Toshkent viloyati Ohangaron tumanida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdik. **Ohangaron tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri Abduqahhor ERNAZAROV** bizga quyidagilarni so'zlab berdi:

– Hozirgi kunda 57 ta umumta'lim maktablari, 1 ta maxsus yordamchi maktab, 21 ta MTM, 4 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda.

2015–2020-yillar davomida maktabgacha ta'lim tizimining moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, kapital ta'mirdan chiqarish va joriy ta'mirlash ishlarini olib borish bo'yicha 4 ta MTM kapital rekonstruksiya, 15 tasini esa, kapital ta'mirlash rejalashtirildi.

Joriy yilda erishgan yutuqlarimizdan Samarqand shahrida o'tkazilgan «Eng yaxshi elektron axborot-ta'lim resurslari» ko'rik-tanlovida 29-umumta'lim maktabi informatika o'qituvchisi Eldor Alimov respublika bosqichi g'olibi bo'ldi. Shuningdek, yurtimizda o'tkazilgan bilimlar bellashuvi bosqichlarida tumanimiz o'quvchilaridan 54-umumta'lim maktabi 6-sinf o'quvchisi Nazokat Narimova tanlovning respublika bosqichida faxrli o'rinni egalladi.

Bu yil 9-, 15-, 16-, 18-, 22- MTMlarida chet tili to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bo'limimizga qarashli «Vasiylik va homiylik» organi ijtimoiy himoyaga muhtoj, boquvchisini yo'qotgan 76 nafar bolalarni doimiy nazoratga olgan. Endilikda, 10 nafar yetim bola navbatdan tashqari uy-joy bilan ta'minlandi.

O'quvchi-yoshlarni jismonan baquvvat, barkamol etib tarbiyalashda tumandagi 2 ta sport maktabi faoliyatining alohida ahamiyatini aytib o'tish joiz. Bugungi kunda, zamonaviy sport zallariga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarimiz turli musobaqalarda qatnashib, sportning ommalashishiga o'z hissalarni qo'shishmoqda.

Yangi 2014–2015-o'quv yilida tumanimizdagi 12-, 53-umumta'lim maktabida matematika hamda 56-umumta'lim maktabida chet tili (ingliz tili) fanlaridan chuqurlashtirib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan sinflar ochilishi arafasida.

Aziz o'quvchilar! Yangi o'quv yilida a'lo baholarga o'qib, ulkan marralarni zabt etishingizga tilakdoshman. Zero, yurt kelajagi – Sizning qo'lingizda!



Biz «Tong yulduzi»ni sevib o'qiyamiz.

ZUBAYDA olgan suratlar

Nurbek QIDIRALIYEV yozib oldi

Inson biror ezgu yumushni amalga oshirsa, shu ishi tufayli izzat, ehtirom topadi va yanada oydinroq manzillarni, ulkanroq maqsadlarni ko'zlaydi. Shu tariqa ezgulikning yo'llari uzayib boraveradi. Ezgulikning uzun yo'llari barchamizni yuksak marralar sari chorlab turaversin!

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, gazetamizning 2014-yil 6-yanvar, 1-sonida Mustaqilligimizning 23 yilligi hamda «Sog'lom bola yili»ga bag'ishlangan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» an'anaviy respublika tanlovini e'lon qilgan edik.

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika bolalar kutubxonasi hamda «Tong yulduzi» gazetasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan mazkur tanlovda respublikamiz umumta'lim maktablarining 1-9-sinf o'quvchilari o'zlarining

ona Vatan, Istiqlol haqida, ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlar, imkoniyatlar xususidagi ijodiy ishlari bilan qatnashishdi.

Bu yilgi tanlovda mingdan ortiq o'quvchi ishtirok etgan bo'lsa, ularning har bir ijodiy ishlari yuqori o'ringa munosib. Sababi, Vatan haqida ijod etishning o'zi g'oliblik. Biroq tanlovda g'oliblar aniqlanishi shart. Shu bois, hakamlar hay'ati tomonidan eng sara ijodiy ishlar belgilab olindi.

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA» respublika ko'rik-tanlovi g'oliblari aniqlandi

BAXTI BOR QIZMAN

Mohinur ABDUSATTOROVA, hikoya yo'nalishida 1-o'rin sohibasi:

– Men baxtiyor qizman. Chunki ozod diyorda tug'ilganman, shu yerda ulg'aymoqdaman. Kelajakda mehribon ustozlarim singari o'z Vatanimga nafi tegadigan o'qituvchi bo'lmoqchiman. Yurtboshimiz, ota-onam va ustozlarim ishonchlarini, albatta, oqlayman.

Istiqlol havosidan to'yib-to'yib nafas olayotgan sho'x-shodon kichkintoylar, qalbi qaynoq yoshlar, yuzlaridan nur yog'ilib turgan onaxon-u otaxonlarga boqib, tinch, osuda, farovon hayot nechog'lik aziz ekanligiga yana bir bor amin bo'laman. Beixtiyor «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» deya dunyoga jar solgim kelaveradi.



Mohigul JABBOROVA, she'riyat yo'nalishida 1-o'rin sohibasi:

SHIJOATNI O'RGATDI VATAN

Yulduzlar guvohdir, har sahar otam, Temir yo'llar aro boshlab borar yo'l. Yonidan hayqirib o'tar parovoz, Poyida assalom deydi Mirzacho'l. Sadoqatni otam o'rgatdi.

Mudroq kechalarni saharga ulab, Boshlanar subhidan sohir azonim, Tandir o'choqlarda g'aflatni yoqib, Xo'rozni uyg'otar, oh onajonim, Saodatni onam o'rgatdi.

Mehr-muhabbatga qalbim to'ldirib, Jaholatga qarshi kurashga chiqdim. Tafakkur, yimondan andoza olib, Elimning qalbiga bir ko'ylak tikdim, Shijoatni o'rgatdi Vatan.



1-o'rinlar:

Mohigul Jabborova, (she'riyat yo'nalishi) Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi (Hozirda Yangiyer akademik litseyi o'quvchisi).

Mohinur Abdusattorova, (hikoya yo'nalishi) Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

Ruxsoraxon Abdulazizova, (tasviriy san'at yo'nalishi) Farg'ona viloyati, Buvayda tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

2-o'rinlar:

Kamola Sherqulova, (she'riyat yo'nalishi) Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 35-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi.

Sevinch Avazova, (hikoya yo'nalishi) Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 53-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi.

Maftuna Ne'matova, (tasviriy san'at yo'nalishi) Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 65-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi.

3-o'rinlar:

Gulasal Qo'chqorova, (she'riyat yo'nalishi) Xorazm viloyati, Urganch shahar, 22-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi.

Nadejda Mahkamova, (hikoya yo'nalishi) Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

Hasan Hamzayev, (tasviriy san'at yo'nalishi) Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 107-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi.

G'oliblarga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi. Barcha g'oliblarni tabriklaymiz.

Feruza SOYIBJON qizi tayyorladi.
Zubayda MAMATQULOVA
olgan suratlar

TANLOV SABAB...

Hasan HAMZAYEV, tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha 3-o'rin sohibi:

– «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika tanlovining tasviriy san'at yo'nalishida ishtirok etdim. Tanlov sabab, yurtimning go'zalligi, bunyodkorlik ishlari avjida ekanligi, atrof kun sayin obod bo'lib borayotganini yana bir bor his qildim. O'z chizgilarimda ana shu o'zgarishlarni tasvirlashga harakat qildim. Hay'at a'zolari mening ijodiy ishimi faxrli o'ringa loyiq topishganidan juda xursandman. Bu esa menga kelgusida yanada sermazzun ijod qilishimga turtki bo'ldi.



ULUG' NE'MAT

Sevinch AVAZOVA, hikoya yo'nalishida 2-o'rin sohibasi:

– Men ko'plab tuman, viloyat va respublika tanlovarida faol qatnashishga harakat qilaman. «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika ko'rik-tanlovida ishtirok etish menga yanada zavq bag'ishladi. Shu bilan birga zimmamga katta mas'uliyat yukladi. Chunki Istiqlol ulug' ne'mat, uni madh etish, ko'z qorachig'idek asrab-avaylash va qadrlash barchamizning muqaddas burchimizdir.



Tanlovga kelgan asarlardan namunalari

Namangan viloyatining Chortoq tumanidagi 48-umumta'lim maktabi o'quvchilari o'quv yilini yangi kuch-g'ayrat, ko'tarinki kayfiyat bilan boshlab yuborishdi.

CHO'QQILARNI KO'ZLAGAN YOSHLAR

Ushbu ta'lim muassasasida ayni paytda 810 nafar o'quvchi 75 nafar ustoz va murabbiylardan bilim sirlarini qunt bilan o'rganib kelmoqda. O'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida 53 ta fan va sport to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

– O'tgan o'quv yilida Sherzodbek Arifboyev, Shohruh Jo'rayev, Abubakr Hasanboyev tasviriy san'atning miniatyura yo'nalishi bo'yicha respublika tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni egallashdi, – deydi maktab rahbari Nazira Hayitova shogirdlari yutug'idan faxrlanib.

Ta'lim maskanida «Ustoz – shogird» yo'nalishida olib borilayotgan ishlar ham tahsinga loyiq. Buni «Milliy istiqlol g'oyasi» fani o'qituvchisi Tanzila Muhiddinova, tarix fani o'qituvchisi Halima Dehqonova, boshlang'ich sinf o'qituvchisi Dilbarxon Tojiboyevaning



2015-yilda ham o'quvchilarimiz «Tong yulduzi»-ning faol obunachilari bo'lishadi.



sa'y-harakatlarida ko'rdik. Nargiza Qirg'izovanning «Yil yetakchisi» respublika tanlovida faxrli o'rinni egallashi esa ustozlar yangilikka intilish va izlanishda o'quvchilarga ibrat ekanligidan dalolatdir.

Tayanch maktabi hisoblangan ushbu bilim maskanining «Nihol» dastasi nafaqat tumandagi, balki viloyatdagi ko'plab tadbirlarda ham o'z dasturlari bilan muntazam ishtirok etib kelmoqda.

– Maktabimizning yordamchi xo'jaligi ham bor. Bodomzor, turli poliz mahsulotlari ekilgan egatlardan olingan daromad hisobiga maktab moddiy-texnika bazasini yanada yaxshilashga harakat qilayapmiz, – deydi Nazira opa.

Rosti, bu maktabda tahsil olayotgan o'quvchilarga havasimiz keldi.

Yusuf ABDULLAYEV

ELBEK SHOIR BO'LMOQCHI

Tengdoshingiz Elbek Usmonov poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 327-umumta'lim maktabining 5-«B» sinfida a'lo baholarga o'qiydi.

Elbek bilan bo'lgan suhbatimizdan uning ko'p kitob o'qishi, sport mashg'ulotlariga qatnashishini ham bilib oldik. Birinchi ustози Gulfira opadan she'r yozish sirlarini o'rganibdi.

– Hozirda sportning suzish turi bilan shug'ullanyapman. Yana xorijiy tillarni mukammal o'rganish maqsadida to'garaklarga ham qatnashishni boshladim. «Tong



yulduzi» gazetasi maktabimizga yangidan yangi xushxabarlar bilan kirib keladi. Shuning uchun bu gazetaga maktabimizda ixlosmandlar bisyor. Albatta, joriy o'quv yilida ham sevimli nashrimga obuna bo'lishni niyat qildim, – deydi Elbek.

Manzura UBAYDULLAYEVA



KOREYANING ENG MASHHUR QO'SHIG'I

Yosh avlodni o'zga xalqlar madaniyati, urf-odati, boy madaniy merosi bilan yaqindan tanishtirishda yurtimizda o'tkazilayotgan ko'rgazmalarning ahamiyati katta.



Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Koreya Respublikasining yurtimizdagi elchixonasi, Chonson Arirang ilmiy-tadqiqot instituti va Koreya

Milliy etnografiya muzeyi bilan hamkorlikda O'zbekiston tarixi Davlat muzeyida «Arirang – Koreyaning qalbi» nomli ko'rgazma tashkil etildi.

Ma'lumot o'mida aytib o'tish kerakki, Arirang – Koreyaning eng ommaviy va mashhur xalq qo'shiqlaridan biri bo'lib, u mazkur mamlakatning norasmiy madhiyasi ham hisoblanadi. 2010-yil dekabrda YUNESKO tomonidan ushbu qo'shiq jahon nomoddiy madaniy-merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Mazkur ko'rgazmadan, shuningdek, 240 dan ziyod kitoblar, albomlar, jurnal va gazetalar, an'anaviy xalq qo'shiqlari to'plamlari, maishiy ashyolar o'rin olgan bo'lib, tashrif buyuruvchilar noyob eksponatlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

Koreys xalqining madaniyati va san'atidan so'zlovchi hamda xalqlararo madaniyatni yanada yaqinlashuviga xizmat qiluvchi ushbu ko'rgazma shu yilning 2-noyabriga qadar davom etadi.

Mahmudjon AZIMOV

AZIZJONNING ORZUSI

– Mana bu tuya oq loydan, mana bu gullar esa qizil loydan yasalgan. Alvon rangli guldastani onajonimning tug'ilgan kuniga sovg'a qilganman...

Tengdoshingiz Aziz Olimjonovning yasagan jajjigina haykalchalarini ko'rib, inson qo'li mo'jizalar yaratishiga yana bir bor amin bo'ldik.

– Bugun men singari yoshlarning bilim va hunar o'rganishlariga barcha imkoniyatlar yaratilgan, buning uchun odamning o'zida ishtiyoq bo'lsa bo'lgani, – deydi poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 114-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Azizjon.

– Men bo'sh vaqtimda tumanimizdagi «Barkamol avlod» respublika bolalar texnik ijodiyoti markazi qoshida tashkil etilgan «Kulolchilik» to'garagiga qatnayman. To'garagimiz rahbari Umar aka Mirmanov hamda Alisher aka Odilovdan kulolchilik hamda haykaltaroshlikning sir-asrorlarini o'rganmoqdaman. Bu yerda olgan bilim va malakalarimni Toshkent keramika zavodida sinovdan o'tkazmoqdaman. U yerda ustozim Murod akadan yasalgan buyumlarni qanday pishirishni, unga sayqal berishni qunt bilan o'zlashtiryapman. Amaliy san'at turi bo'yicha



turli ko'rik-tanlovlarda qatnashib, qator yutuqlarga erishdim. Kelajakdagi orzularim bisyor. Maktabni tugatgach, Respublika rassomlik kollejining haykaltaroshlik bo'limiga o'qishga kirib, o'rganmalarimni davom ettirmoqchiman.

Bugun har bir o'quvchi o'z iqtidori, salohiyatini namoyon etib, Vatanimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shish niyatida. Bunday ezgu niyatli yigit-qizlar ichida Azizjonning ham borligi juda quvonarli.

LAYLO suhbatlashdi.
Zuhra olgan surat

LESSON 2

Ingliz tilida buyruq gaplar

Buyruq gaplar odamlardan nima qilish yoki qilmaslikni so'rash yoki ularga aytish, maslahat berish uchun ishlatiladi. Ingliz tilida bo'lishli va bo'lishsiz buyruq gaplar bo'lib, bo'lishli buyruq gaplar «to» predlogisiz ishlatiladi.

For example: Read. Get up.
Write. Sit down va boshqalar.

Bo'lishsiz buyruq gaplar quyidagi shaklga ega: don't + fe'l («to» siz).

For example: Don't read. Don't get up.
Don't write. Don't sit down va boshqalar.

Buyruq gaplar yasalganda, gapda birinchi o'rinda fe'l yoki don't + fe'l («to» siz keladi).

Bo'lishli shakl	Bo'lishsiz shakl
Mix the butter and sugar.	Don't add much sugar.
Add water and mix them well.	Don't add much water.
Put this meat in the fridge.	Don't buy potatoes, we have some.

7 WORDS FOR 7 DAYS
(7 KUNGA 7 SO'Z)



Dinara SHAKIROVA tayyorladi

Finish the Sentences
(Gaplarni tamomlang)

Finish the sentences using the following words:

Boring, camera, tomorrow, guitar, key, volume, bed, yellow, puppy, marathon.

1. I'm learning to play the _____.



2. It's going to be windy _____.

3. I like reading before going to _____.



4. I went to the pet store to buy a _____.

5. This movie is _____.



6. I'm training for a _____.

7. Please turn down the _____.



8. Where is my car's _____.

9. My favourite color is _____.

10. I love taking photos with my _____.




Gulruh SOLIYEVA,
O'zDJTU talabasi

My equipments
(Mening o'quv qurollarim)



A book



a pencil-box



a pencil



A pen



ruler



rubber

Say where these things are and use these words: desk, a pen, a pencil, pencil-box, bag, school-bag.

- The rubber is on the ...
- The pen and the pencil are in the ...
- The book is in the ...
- The exercise book is in the ... too.
- I see a pencil-box, ... and ...



Risolat ISMOILOVA

RIDDLES
(Topishmoqlar)

I have long ears,
I'm white and grey,
I like carrots
Find who I am?



Its colour is different,
And it has four legs,
It gives milk
What animal is it?

Shahnoza KARIMOVA

Proverbs
(Maqollar)

Art is long, life is short.
(Ilmsiz bir yashar, ilimli ming yashar).

Head cook and bottle-washer.
(Bir yigitga yetmish hunar oz).

TDIU qoshidagi akademik litsey o'quvchisi
Shirin ASILOVA tarjimasini



QUVNOQ SHE'RLARINGIZ KO'PAYAVERSIN!

Yurtimizda bolalar adabiyoti yo'nalishida ijod qilib kelayotgan iste'dodli shoir va yozuvchilar ko'plab topiladi. Ana shulardan biri hazorasplik shoir Qo'zi Ismoil. Qo'zi akaning so'nggi o'n besh yil davomida nashr qilingan she'riy kitoblari samimiy satrlarga boyligi, yumorga yo'g'rilganligi, qisqa va ravonligi bilan o'quvchilarini topdi, ustoz adabiyot-shunoslar e'tiboriga tushdi.

Yaqinda men Qo'zi Ismoilning «Sayra, bulbulcha» nomli yangi kitobini katta qiziqish bilan o'qib chiqdim. Tan olish kerak, shoirning bu kitobi chin ma'nodagi saylanma bo'libdi. Bir-biridan quvnoq, teran mazmunli, o'ziga xos samimiyat, shoirona topqirlikka boy bu kitobdagi dil kechinmalarini sizga ham ilingim keldi.

«Sayra, bulbulcha» bilan tanishgan o'quvchi shoirning tabiatan odamshavanda, saxiy inson, katta qalb egasi ekanini bilib oladi. Shoir she'rlari nafaqat yosh, shu bilan birga katta yoshdagi kitobxonlarni ham befarq qoldirmaydi. Muallif «Otangga rahmat» nomli she'rida, jumladan, shunday yozadi:

– Vazifani xatosiz
Ishlabsan yasha, Ahmad!
Xursand bo'lib muallim
Dedi: – Otangga rahmat!
Ahmad ketdi qizarib,
Ko'zin uzolmas yerdan:
– Otam ishlab berganin
Bilvoldingiz qayerdan?



Ushbu she'r qahramoni shunchalar sodda, vijdonli bolaki, u o'qituvchisining chin ma'nodagi olqishini eshitib ham qizarib ketadi va xayoliga kelgan fikrni o'zi bilmagan holda ustoziga so'zlab yuboradi.

Shotut daraxtiga chiqib qorni to'yguncha tut yegan bolaning birdan yig'lagisi kelib qolishi mumkinmi? Qorni to'rgan bo'lsa nega yig'lashi kerak, deb ajablanayotgandirsiz? Avvaliga men ham ajablandim. She'rmi o'qigach, shoirning topqirlikiga tan berdim. Ehtimol, siz ham qachonlardir o'sha bolakayning holiga tushgandirsiz? Harqalay, anchayin havas qilib bo'lmaydigan hodisa. Keling, siz ham o'qib ko'ring:

Quyosh botdi. Shaharga kech tushdi. Kutubxonadagi barcha xodimlar o'z ishlarni tugatib bo'lgach, bu yerdagi barcha kitoblar suhbatlashish uchun yig'ildilar.

Birinchi bo'lib, muqovasi qalin, yaqinda chop etilgan Ensiklopediya so'z boshladi:

– Men insonlar uchun eng muhim bo'lgan kitobman. Har bir varag'imda qimmatli ma'lumotlar bor. Odamlar menga ehtiyoj sezganlari uchun ataylab, olib o'qiydilar.

Bu gapni eshitgan Tarix kitobining jahli chiqib:

– Sendagi ma'lumotlar menikichalik qiziqarli emas. Odamlar meni o'qib, tarixni o'rganadilar. Axir tarixdan ham qiziqroq fan bormi, – debdi.

– Ma'zur tutadilar, – deya gap boshlabdi Biologiya kitobi, – agar inson o'z tanasi haqidagi ma'lumotlarni to'liq bilmasa, unga tarixning nima keragi bor? Men hammalaringdan ham zarur kitobman!

– Ho-o! Men Pazandachilik kitobiman, agar odamlarning qorni och bo'lsa, qay biringni o'qigisi keladi.



Shotut rosa pishganini,
Ko'rib qoldim men kecha.
Chiqib baland shoxiga,
Yedim qornim to'yguncha.
Pastga tushgach, bir mahal,
Keldi rosa yig'lagim –
Rasvo qilib qo'yibman,
Oppoqqina ko'ylagim.

«Kit» nomli she'rida ilimga chanqoq bolaning dilidan o'tgan bir savolni o'rtaga tashlab, unga to'g'ri javob topishni o'quvchilar hukmiga havola etadi. Xulosa esa aniq: bunday va shunga o'xshash savollarning to'g'ri javoblarini topish uchun, albatta, kitob o'qish, bilim olish, dunyoqarashni kengaytirish kerak bo'ladi. Darvoqe, mana o'sha she'r:

Ellik tonna kelarmish
Dengizdagi kit – baliq.
Bu og'irlik, albatta,
Ming bor maqtovga loyiq.
Biroq bitta narsaga,
Sira aqlim yetmaydi.
Shuncha og'ir bo'lsa, u
Nega cho'kib ketmaydi?



Izlanuvchan shoir, pedagog Qo'zi Ismoil ayni kunlarda ham siz azizlarga atab yanada mazmunli, quvnoq she'rlar yozish orzusida tinmay izlanmoqda.

So'zim so'ngida shoirga mustahkam sog'liq, ijodiy parvozlar tilab, «Yaxshi she'rlaringiz ko'payaversin, Qo'zi aka!», deb qolaman.

Abdurahmon AKBAR,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

Zarifaxon Sirojiddinova Farg'ona viloyati, Bog'dod tumanidagi Do'stlik qishlog'ida joylashgan 47-umumta'lim maktabining 5-sinfida a'lo baholarga o'qiydi.

QISHLOG'IMNI YAXSHI KO'RAMAN

– Qishlog'imiz tumanimizning eng chekkasida joylashganiga qaramay, biz uchun barcha sharoitlar muhayyo.

Men donishmand hamqishloqlarimni, shinamgina maktabimni, sidqidildan ta'lim-tarbiya berayotgan ustozlarimni juda yaxshi ko'raman. Ayniqsa, Xamransa opa Abdurahmonovaga o'xshab men ham o'qituvchi bo'lmoqchiman. Buning uchun esa ko'proq o'qishim, sog'lom bo'lishim lozimligini bilaman. Shuning uchun maktabimizda tashkil etilgan ingliz tili, chiroyli yozuv, tennis to'garaklariga qatnashaman. Kompyuter o'rganaman, rasm chizishni yaxshi ko'raman.



Maktabimiz shahardan ancha uzoqda bo'lsa-da, biz o'quvchilarning bilim olishimiz uchun yetarli sharoitlar yaratilgan. Bunday imkoniyatlardan to'liq foydalanish esa o'zimizga bog'liq, – deydi tengdoshingiz.

Qishlog'i bilan faxrlanayotgan Zarifaxon bir kun kelib bilim va zakovatda nafaqat qishlog'i, balki yurt faxriga aylansa, ajabmas.

Z. MAMATQULOVA

KITOBLAR BAHSLASHGANDA...



– Qaysi birimizdan voz kechmoqchisan? – deya suhbatga qo'shilibdi Odobnoma.

– Menga qolsa, javonning to'ridan joy olgan Alifbe va Ertak kitoblarini yo'qotsak yaxshi bo'lardi.

– Ha, insonlarga bularning keragi yo'q. Ularga biga o'xshagan jiddiy kitoblar yoqadi, – debdi Astronomiya.

– Oramizda hech kim ularni hurmat qilmaydi, – deb baralla aytilibdi barcha kitoblar.

Shunda Odobnoma: «Agar insonlar

Alifbe kitobidan harf tanishmaganida sizlardan hech qaysingiz ularga zarur bo'lmas edingiz. Alifbe kitobi borligi uchun ham sizlar borsizlar. Qaysi biringizga atab insonlar bayram uyushtirgan? Alifbe kitobiga bag'ishlab har yili bayram o'tkaziladi, uni ardoqlashadi. Yoshligidan ertak o'qimay katta bo'lgan bolaga, sizlardek boshqa soha kitoblarining hech biri qiziq bo'lmas edi. Shuning uchun sizlar bu kitoblarni hurmat qilinglar. Barcha kitoblar Odobnomaning bu so'zlaridan uyulib qolibdilar.

Shahnoza MUHAMMEDOVA



**AFC
U-16
CHAMPIONSHIP**

O'SMIRLARIMIZ CHORAK FINALDA

Tailandda futbol bo'yicha o'n olti yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida boshlangan Osiyo chempionatining guruh bahslarida O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi yetti ochko jamg'arib, keyingi bosqichga yo'l oldi.

Amaldagi Osiyo chempioni bo'lgan terma jamoamiz guruh bahslarining ilk uchrashuvini nepallik tengdoshlariga qarshi o'tkazdi. Aleksandr Mochinov shogirdlari o'yinning 53-daqiqasida hisobni ochdi. Hakam tomonidan belgilangan o'n bir metrlik jarima to'pini Jonibek Ko'chimov raqib darvozasiga aniq yo'lladi. Ammo uchrashuvga qo'shib berilgan daqiqalarda nepalliklar hisobni tenglashtirishga muvaffaq bo'lishdi — 1:1.

O'zbekiston terma jamoasi 9-sentabr kuni guruhdagi ikkinchi uchrashuvda Koreya XDR vakillariga qarshi maydonga tushib, 3:2 hisobida g'alaba qozondi. O'yinda Suhrob Nurullayev «dubl»ga erishgan bo'lsa, Abdug'ani G'anijonov o'z hisobiga bitta gol yozib qo'ydi. Ushbu g'alaba o'smirlarimizni guruhda birinchi o'ringa olib chiqdi.

Yosh futbolchilarimiz 11-sentabr

kuni guruhdagi so'nggi uchrashuvda Kuvayt futbolchilari bilan kuch sinashdi.



Qiziqarli kechgan o'yinda 4:2 hisobi qayd etilib, vakillarimizning g'alabasi bilan yakunlandi. Uchrashuv boshidanoq qiyin o'tishi taxmin qilingandi. Sababi, Kuvayt uchun barchasi yakunlangan va ular hech qanday bosimni his qilmagan holda to'p surishlari kutilgandi.

Shunday ham bo'ldi.

O'zbekiston futbolchilari — Saveliy Abramov (9-daqiqa) va Jonibek Ko'chimovning (42-daqiqa) ikki golidan keyin 2:0 hisobda oldinga o'tib ketishdi. Ammo 1-bo'limning o'zidayoq kuvaytliklar ham ikkita javob golini kiritishning uddasidan chiqishdi.

Ikkinchi bo'limda O'zbekiston terma jamoasi baribir o'z so'zini aytdi. Tinib-tinchimas Suhrob Nurullayev (68-daqiqa) uchinchi golni urib, jamoasini oldinga olib chiqdi. Zaxiradan tushgan Xudoyberdi Xoliqov (90+3-daqiqa) ham o'yin oxirlarida darvozabonni aldash o'tib, juda chiroqli gol urdi, 4:2.

Shu tariqa hamyurtlarimiz guruhda birinchi o'rinni qo'lga kiritib, keyingi bosqichga chiqishdi.

Kecha o'smirlarimiz chorak finalda suriyalik tengdoshlariga qarshi maydonga tushishdi. Bu haqda gazetamizning navbatdagi sonida ma'lumot beramiz.

Shoh MUHAMMAD

CHINIQLASH MASHQLARI

Qambar OTA



Ertalabki ochiq havo

Tanga davo,

Jonga davo.

Tizilish saf-saf bo'lib,

Qalbimizga quvonch to'lib.

Jismimizni chiniqtirib,

Ruhimizni tiniqtirib,

Sog'lom, quvnoq bo'lmoq uchun,

Durkun o'ynab-kulmoq uchun

Qani do'stlar, mashq boshlang,

Yengilgina qadam tashlang.

Birday yuring joyingizda,

O't chaqnasin poyingizdan.

Bir, ikki, uch,

Bir, ikki, uch,

Badanlarga yig'ilar kuch.

Intilamiz,

Mashq qilamiz.

Maktab, bog'cha, uyda har choq

Ertalabdan do'st-u o'rtoq,

Aka-uka, opa-singil,

Harakatdan bo'lib yengil.

O'ng tomonga egilamiz,

Chap tomonga bukilmamiz.

Goho borday qanotimiz,

Askarday tik qomatimiz.

G'oz bo'yinday qo'llarimiz,

Yayrab ketar dillarimiz.

Chiniqamiz,

Tiniqamiz.

Hamma mashqni tortmasdan tap,

Bajaramiz puxta aylab.

Birinchi mashq,

Ikkinchi mashq,

Mashqlar mashqqa ulanadi,

Tanlarimiz to'lg'onadi.

Qo'l, oyoqlar chayir, sog'lom,

Harakatda chaqqon, bardam.

Kuch-quvvatni yig'ib tanga

Asl farzand bo'l Vatanga.

Bolalar ham vaqti chog'day,

Ko'ngillari bo'lar tog'day.

Yengil olib nafasimiz,

Qalqon ko'krak qafasimiz.

Vujudlarda kuchlar toshar,

Yuzlarimiz rang talashar.

Chiniqqandan har bir bola,

Chebrasida kular lola.

Sog'tanda sog'lom aql,

Bo'lmoq uchun kuchli, sofdil,

Quvnoqjonlar sizdan talab,

Mashq boshlang har ertalab.

Bir, ikki, uch — bir, ikki, uch,

Salom sog'lik, Assalom kuch!

Xalqaro toifadagi sport ustasi

SARVINOZ

Hindistonda bellashadi

Yaqinda Norvegiyada bo'lib o'tgan Xalqaro shaxmat federatsiyasi — FIDening kongressida sirdaryolik yosh shaxmatchi Sarvinoz Qurbonboyevaga xalqaro toifadagi sport ustasi unvonini berish to'g'risida qaror qabul qilinganini eshitib, qalbimiz quvonch va iftixorga to'ldi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish joizki, Istiqloq yillarida Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda yoshlarimiz iste'dodini ro'yobga chiqarish, ularning iqtidor va salohiyatini namoyon etishlariga shart-sharoit yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Buning samarasi o'laroq, ko'plab iqtidorli farzandarimiz turli xalqaro musobaqalarda yurtimiz nomini ulug'lab, O'zbekiston chinakam iste'dodlar mamlakati ekanini butun dunyoga namoyish etishayotir. Nafisa Mo'minova, Gulruhbegim Tohirjonova, Nodira Nodirjonova, Irina Gevorgyan, Nodirbek Abdusattorov, Javohir va



Islombek Sindorov kabi haqiqiy iste'dod egalari shular jumlasidandir.

Sarvinoz ham bugunga qadar yurtimiz sharafini qit'a va-jahon birinchiliklarida, turli xalqaro musobaqalarda munosib himoya qilib kelmoqda. Ayni paytda iqtidorli shaxmatchi qizimiz 20 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida Hindistonda bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga jiddiy tayyorgarlik ko'rmoqda.

Sarvinoz ushbu nufuzli musobaqada ham o'ziga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, yuqori o'rinlarni zabt etishiga ishonamiz.

TEZKORLIK VA SHIJOAT TANTANASI

Yurtimizda har yili o'tkazib kelinayotgan «Kamolot-tur» velomarafoni ko'plab yoshlarni ezgu maqsad sari birlashtirib, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

Yaqinda Toshkent viloyatida ushbu musobaqaning hududiy bosqichi o'tkazildi. «Kamolot» YOIH Toshkent viloyati Kengashi, madaniyat va sport ishlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, xalq ta'limi boshqarmalari va

boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan turnirda 200 nafardan ziyod havaskor velopoygachi o'z mahoratini sinovdan o'tkazishdi.

Velomarafonda chirchiqlik Temur Shukurov, Saidxon Saidaliyev hamda

Yuqori Chirchiq tumanidan Vladimir Saidaliyev o'z yosh toifasi bo'yicha finish chizig'ini birinchi bo'lib kesib o'tdi va musobaqaning respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Biz g'oliblarga bellashuvning yakuniy bosqichida ham omad tilaymiz.

S.TURSINOV

USTOZ TUHFASI



Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi 97-umumta'lim maktabi rahbari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Xudoyberdi Komilov uzoq yillardan buyon bolalar uchun sermazzmun ijod qilib kelmoqda. Ijodkor-pedagog o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, bolalarga atab quvnoq she'rlar ham yozadi. Uning «Kim qanday uxlaydi?», «Sirli sovg'alar» nomli kitoblari o'quvchilar qo'liga yetib borgan.

Ustozning yaqinda chop etilgan «Mazali kitob» deb nomlangan to'plami bolajonlar uchun yana bir tuhfa bo'ldi.



O'RGIMCHAK

To'r tashlayman,
Kutaman,
Anqovlarni
Tutaman.

Ochko'zmasman,
Qizg'anmay,
Bitta-bitta
Yutaman.

AKA

– Ukamning yoshi uchda,
Burro aytar «arra»ni.
– Mening akam o'n uchda,
Aytolmaydi «karra»ni.

ZAG'IZG'ONNING SHIKOYATI

Odamlarning odati
O'xshar qiziq jumboqqa:
Yaqin yo'latishmaydi
O'zim ekan yong'oqqa.

OYIM CHAQIRDILAR

Itimni ko'rib To'ra,
Uyiga qochdi ura.
Ertasi der muloyim:
– Chaqirdilar-da oyim.

KOLACHA

Dada, meni
Mayda demang.
Qizalog'im
Qayda, demang.

Endi katta
Bola bo'ldim.
Axir, kecha
Xola bo'ldim.




KANDON PISTANING BODOMGA NASIHATI

Pista dedi
Bodomga:
– O'xshasang-chi
Odamga.

Ko'tar qosh-u
Qovog'ing,
Pastroq tushir
Dimog'ing.

Bizlar bilan
Sochilib,
Yurgin-da sal
Ochilib.

Bu qovog'-u
Qoshingga.
To'qmoq tushar
Boshingga.




BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

KROSSCHAYNVORD TUZING!

Chizmadagi «Raqam» so'zidan boshlab aylanalarga yo'nalish bo'yicha «zanjir» va kesishgan holda quyidagi so'zlarni yozing.
BASHAR. FALAK. KATAK. KATET. MEROS. RAJAB. SADAF. TOVAR.

Topshiriqni to'g'ri hal etsangiz krosschaynvord – ya'ni kesishgan va zanjir so'zlar mashqi hosil bo'ladi.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV



Shu kunlarda ko'chalarni to'ldirib maktab tomon oshiqayotgan jajji bolakaylarni ko'rib, zavqingiz keladi.

BOLAJONLAR QUVONCHI



aytgan she'rlari barchaga birdek zavq ulashdi. Jajji kichkintoylarimizga taqdim etilgan «Prezident sovg'asi» ular quvunchiga quvunch baxsh etdi.

Guljahan HAYITOVA



KARTOSHKALI VA PISHLOQLI TOBLAMA

Kerakli masaliqlar: 0,5 stakan sut, 2 oshqoshiq o'simlik yog'i, 50 gr. pishloq, 1 stakan un, 1 bog' shivit, 1 oshqoshiq saryog', 3 dona kartoshka, 2 dona tuxum, ta'bga ko'ra tuz, murch.

Tayyorlanishi: Tuzli suvda kartoshkalar qaynatib olinadi. Pishgach, po'stlog'i arчилadi va yirik tishli qirg'ich-

dan o'tkaziladi, pishloq ham qirg'ichdan o'tkazilib, unga mayda to'g'ralgan shivit qo'shiladi. Alohdada sirli idishga un, tuxum, eritilgan saryog', o'simlik yog'i, tuz, murch solinadi. So'ngra kartoshkali massaga qo'shilib, yaxshilab aralashiriladi.

Tovaga yog' solib, biroz qizdiriladi. Idishdagi barcha massaliqlar tovaga solinadi va usti tekislanadi. Bu toblamani gaz pechida yoki olov ustida pishirishingiz mumkin.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Gazetamizning 36-sonida berilgan BOSHQOTIRMANing javoblari:
1. Olmosh. 2. Ani. 3. Ko'makchi. 4. Ot. 5. Omonim. 6. Hol. 7. Kelishik.

8

15-sentabr 2014

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'gli

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taqoq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 30101
Buyurtma – S 891